



IQBOL MIRZONING "BONU" ROMANIDA ASAR BOSH QAHRAMONING METIN IRODASI VA UNING HAYOT SINOVLARGA BERGAN BARDOSHI HAQIDA MAQOLA

Abdinnazarova Diyora Islom qizi

abdinazarovbobir43@gmail.com +998959170905

Anorova Go'zal Abdimo'min qizi

gozalanorova58@gamil.com +998912320104

Mamaraximova Diyora To'lqin qizi

diyoramamaraximova63@gmail.com +998955506105

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabalari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17377755>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Iqbol Mirzo qalamiga mansub "Bonu" romani qahramoni Bonuning yaqinlaridan ko'rgan xiyonati, razillik, ikkiyuzlamachilik, insofsizliklarga qanday javob qaytargani; mustahkam iymoni, or-nomusi, iffati yo'lida kechirgan qiyinchiliklari, ichki kechinmalari tasvirlangan va ijodkorning badiiy obrzani mukammal yoritib berganligi haqida gap ketgan.

Kalit so'zlar: maktub, retrospektiv syujet, erka ma'suma, Choliqushi, qiz tarbiyasi, "oq pes", haqiqatgo'ylik, bolaning begonasi, favqulodda matonat, sms, Olmos, e'tiqod, saraton, o'zbek ayoli, bobo meros, favqulodda matonat, o'lim changali, baxtli kunlar eshigi.

Abstract: This article describes the response of the hero of the novel "Bonu" by Iqbol Mirzo to the betrayal, slander, hypocrisy, and dishonesty he saw from his loved ones; the difficulties he endured on the path of his strong faith, honor, and chastity, and the author's perfect illumination of the artistic image.

Keywords: letter, retrospective plot, male innocence, Choliqushi, girl's upbringing, "white pes", truthfulness, child's stranger, extraordinary fortitude, sms, Diamond, faith, cancer, Uzbek woman, grandfather's inheritance, extraordinary fortitude, death's claws, the door to happy days.

Аннотация: В статье описывается реакция героя романа Икбала Мирзы «Бону» на предательство, клевету, лицемерие и нечестность, с которыми он столкнулся со стороны близких; трудности, которые он преодолел на пути к непоколебимой вере, чести и целомудренности, и мастерское раскрытие автором художественного образа.

Ключевые слова: письмо, ретроспективный сюжет, мужская невинность, Чоликуши, воспитание девушки, «белая собака», правдивость, незнакомка ребёнка, необыкновенная стойкость, sms, алмаз, вера, рак, узбекская женщина, наследство деда, необыкновенная стойкость, когти смерти, врата счастливых дней

O'zbek adabiyotida ayollarga bag'ishlab yozilgan asarlar talaygina. Bu mavzuda qalam tebratmagan ijodkor bo'lmasa kerak. Ayniqsa, ayollarning ichki kechinmalarini ifodalash, tasvirlash qiyin masaladir. Buni faqat mahoratli yozuvchishoirlargina uddalay oladilar. Chunki ayol zoti tabiatan murakkab yaratilgan shaxs. Uning xohish-istakalarini, tuyg'ularini payqay olish har doim ham oson kechmaydi. Lekin Iqbol Mirzo bu vazifani maromida ado eta oldi. Avvalo, uning she'riyatiga nazar tashlasak, sermahsul ijodkor ekanligiga amin bo'lamiz. Lekin u nasrda ham barakali ijod qilib ulgurdi. 2014-2017-yillarda shoir bilan bir xonada ish faoliyatini yuritgan publitsist, shoira Munira Ramazonova : "Iqbol aka tinib tinchimas odam

edi. Hayotda ham, ijodda ham hech bir mavzuni chetda qoldirgan emas. Uning davra suhbatlarida, yosh ijodkorlar bilan uchrashuv jarayonlarida ko'p bo'lganman. Harakatchan, ilmga tashna ijodkor yoshlarni yaxshi ko'rar, erinmay ularga "O'tgan kunlar", "Kecha va Kunduz" asarlaridan savollar berib sinardi". Asarlardagi eng mayda detallarni ham katta mavzu, muammo darjasiga olib chiqa olardi. Uningilgariroq yozilgan "Zarb" asari sportchilar hayotini yoritishga bag'ishlangan. Hozir sevib o'qilayotgan "Bonu" romani ham ayol-qizlarning bugungi hayotdagi o'rni, yashash tarsi, kechinmalariga befarq bo'lmagan holda xalqqa bir o'rnak asar sifatida yaratilgan bo'lsa ajab emas",-desa, shoirning suyuqli shogirti Masihulloh Madaminov

ustozining ijodiy faoliyati haqida shunday deydi: "Ustoz ko'nglidagi bor gaplarini qog'ozga tushurar edi. Bir suhbatimizda shunday degan edilar: "Inson yoshi o'tgan sayin tuyg'ulari she'rga sig'may qoladi. Keyin prozaga o'tishga majbur bo'lasan kishi. Ijodkorning hayoti shunday. Yaratilgan nasriy asarlar mana shularning natijasidir. "Bonu" romaniga keladigan bo'lsak, bu qiz bunday mavzuda yirikroq nimadir yaratishimga bir turtki bo'ldi, xolos. Aslida kitobdagi hamma qiyinchilig-u, mushkulotlarni Bonu boshidan o'tkazmagan. Unda jamiyatdagi har bir ayol-qizning hayoti davomida bir marta bo'lsa ham o'zgalardan ko'radigan xiyonati, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, kamsitilish, musofirlik, adolatsizlik kabilar tasvirlangan. Bu og'riqli nuqtalar faqat Bonuniki emas, zulm, aziyat chekkan barcha opa-singillarimiznikidir" Haqiqatdan ham yozuvchi birgina qiz misolida butun o'zbek ayollarining timsolini yaratdi. Bir so'z bilan aytganda, bu asar-barcha ayollarga bag'ishlangan asardir.

Muhokama va natijalar

Ijodkor nazmga sig'magan dardlarini nazmga to'kadi. Shoir Iqbol Mirzoning "Bonu" romanini ikkinchi marta o'qib chiqdim. Asar 2016-yilda yozib tugallangan. Roman epistoliar uslubda. Unda Bonuning ko'rgan- kechirganlari maktublar, yozishmalar shaklida bayon qilingan.

Vaqealar rivoji quyidagicha:Asarda Buxorolik yosh qiz Bonuning hayoti yoritilgan. Mir Arab madrasasi tuprog'ini , 10 yil ilmi komil bo'lgan mo'min boboning o'gitlari, adabiyot muallimi bo'lgan otasidan, kutubxonachi onadan tarbiya olgan Bonu yoshligidan ko'chada o'ynab- quvna o'sgan tengdoshlaridan farqli o'laroq, xontaxtada tirsak sanchib, Allohning kalomini va hadisi sharifni tinglab, goho Xo'jamnazar Huvaydo g'azallarini o'qib yodlab ularning sehri -jozibasi bilan ulg'ayadi. Hayotining mazmuni mutolaaga aylanadi. Ammo bobosing vafoti unga ilk zarba bo'ldi... Yillar o'tdi u talabalar safiga qo'shildi. Olmos bilan tanishdi. Olmosning she'riyatga ixlosmandligi ularni yaqinlashtirdi. Orada ko'rinmas rishtalar bog'landi. Bu rishtalar muhabbatga aylandi. Ne ajabki bu orada Bonu taqdirning ikkinchi zarbasiga uchradi. Jonidan ortiq ko'rgani otasidan judo bo'ldi. Dard kelsa qo'sha- qo'sha keladi deganlaridek, tanasini oq dog'lar o'rab oldi. Bu orada Olmos boshqa qizga uylandi. Hayot Bonuga ko'plab zarbalar yubordi. Lekin Bonu hayot zabralari bilan birma -bir kurashga o'zida kuch topdi. Asarni o'qib o'ylanib qolasan. Oyni o'n beshi qorong'u bo'lsa o'n beshi yorug' bo'ladi, deyishadi. Lekin qani o'sha Bonuga atalgan yorug'lik?!Nega Olmos uning sof muhabbatini oyoqosti qildi, nega Bonuning hayotini o'yin qildi?! (Men ham Bonuga qo'shilib

unga ishonibmana. Uni baxtli qiladi deb o'ylabmana. Buni chin dildan xohlabmana! Ha yigit, yigit, ahvolingizni ko'ring! Nafs nimalar qilmadiya sizni?!)

Akasi Mirxond nega uni shuncha azoblarga tashlab qo'ydi? Barchasini chetdan jim kuzatdi? Axir, aka otadan keyingi otaku?! Yusuf esa u o'z muhabatiga yomon yo'llar bilan erishmoqchi bo'ldi. Agar buni muhabbat deb atash mumkin bo'lsa. Uni deb Bonu qancha malomatlariga qoldi.

Asardagi eng salbiy obrazlardan biri - Dilbar. Uning uchun ayollik sha'ninging ikki chaqalik qiymati yo'q. Suvrati inson siyrati shayton. O'zining qilmishi yetmaganidek Bonuni ham nopok yo'llarga boshlamoqchi bo'ldi. Yo'q, Hayotda yaxshi insonlar ko'p, juda ko'p! Shunday insonlardan biri Shoiri opa. Uni qanday ta'riflashni bilmayapman. U farishtaning o'zi. Hamma Bonudan yuz burib ketganda unga suyanch bo'ldi. Qotgan non yeb bo'lsaham farzandlariga halol luqma yedirtdi. U tufayli Bonu o'zida yashashga kuch topdi. "Huvaydo bobo" Bonuning eng qiyin pallalarida yonida bo'ldi, Bonu uorqali o'z bobosini va Huvaydoni qayta topgandek bo'ldi. O'g'itlari sabab yana yashashga ishtiyoq topdi o'zida. Bonu timsolida ayol matonati, ayol jasorati, ayol muhabbati, ayol sha'ni, ayol vafosi, ayol sabri aks etgan.

Shoiri opa, Huvaydo bobo, Bobur, Alisher, Makar, Larisa obrazlari orqali hayotda inson qadrini anglaydigan, dardini his qiladigan, qalbini tushunadigan odamlarga tayanch bo'la oladigan insonlar tasvirlangan. Jontemir, Marina Dilbar, Botir, Muhiddin obrazlari orqali chet elga ishlash uchun borgan ammo, aysh- ishrat qilib, bir bora beriladigan umrni behuda sarflayotgan insonlarni ko'rish mumkin. Asarda ko'plab ijtimoiy muammolar ham ko'tarib chiqilgan. Bonu ishlagan maktabning ahvoli, direktor va o'qituvchilarning yangiliklarni qabul qila olmasliklari, sen menga tegma, men senga tegmayman deb yashashi, ta'limga e'tibor bermasliklari kabi. "Tanangda og'riq his etsang, demakki sen tirik jonsan, O'zgalar og'rigin sezsang demakki, sen insonsan, insonsan!" Shu parcha orqali xuddiki Bonuning butun hayotini ko'rsatib berilgandek. U o'zi musofir yurtida bo'laturib Shoiri opaga yordam berdi, Ruxsoraga ko'maklashdi, oilasini moddiy jihatdan ta'minladi. Olmosga beminnat yordam berdi, Lora va Larani hayotini saqlab qoldi... Ehhe bunday misollar keltirish mumkin. Asarda ko'plab ibratli fikrlar, Huvaydo g'azallaridan parchalar keltirilgan. Quyida menga yoqqan jumalarni keltirmoqchiman. Atrofida ming yaxshi-yomon gap aylangan

"Bonu" o'z tilining jozibasi, uslubning o'zgacha ekani bilan ajralib turadi. Roman boshdan oyoq maktub (telegram xabari) tarzida bitilgan bo'lib, g'arbda "epistolyar" deb ataladigan ko'rinishda yozilgan. Kitobxonni zeriktirib qo'ymaslik uchun suhbatlar qisqa-qisqa yoritilgan.

Romanning syujet ko'rinishi o'ziga xos. Ya'nikim, asarning bosh qahramoni Bonu yoshlik davrlari haqida gapira turib, bolalik xotiralariga sakrab o'tib ketadi, yoki aksincha. Syujet silsilasining bunday xillma-xilligiga asoslanib, uni retrospektiv syujet desa bo'ladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Bonu" romani qahramoni bugun barchaga birdek namuna bo'ladigan ayol obrazidir. Uning boshidan o'tkazgan qiyinchiliklari garchi oddiydek tuyulsada, bu sinovlar oldida taslim bo'lmagani uningmetin irodasini, sabrini ko'rsatdi. U bizga haqiqiy o'zbek ayoli siymosini yaratdi.



O'ylayminki, bu asarni har bir qiz, ayol mutoalaa qilishi kerak. Zero Bonuning ko'rsatgan jasoratlari barchaga birdek o'rnak bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar (references):

1. Iqbol Mirzo "Bonu" 278 bet, Sharq nashriyoti 2018
2. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol".-T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2005
4. Iqbol Mirzoning shogirti Masihulloh Madaminov bilan 2023-yil 28-oktabrdagi audio suhbatdan foydalanildi.